



**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI DAVLAT AKTIVLARINI BOSHQARISH AGENTLIGI
TOSHKENT SHAHAR HUDUDIIY BOSHQARMASI BOSHLIG‘INING**

BUYRUG‘I

20 25 -yil 7 - noyabr

283 -son

Toshkent shahri

**“O‘zyo‘lloyiha loyiha-qidiruv instituti” davlat unitar korxonasini
mas’uliyati cheklangan jamiyatiga o‘zgartirish to‘g‘risida**

O‘zbekiston Respublikasining “Davlat mulkini xususiylashtirish to‘g‘risida” va “Davlat mulkini boshqarish to‘g‘risida”gi Qonunlari, Vazirlar Mahkamasining 2014-yil 6-oktabrdagi 279-son qarori bilan tasdiqlangan “Davlat korxonalari va muassasalarini xo‘jalik jamiyatlariga o‘zgartirish tartibi to‘g‘risi”gi Nizom talablariga muvofiq O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 24-martdagi PQ–102-son qarori ijrosini ta’minlash maqsadida,

BUYURAMAN:

1. Quyidagilar:

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Iqtisodiyotda davlat ishtirokini qisqartirishning qo‘shimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2023-yil 24-martdagi PQ–102-son qarorining 1-ilovasiga asosan “O‘zyo‘lloyiha loyiha-qidiruv instituti” davlat unitar korxonasi (keyingi o‘rinlarda – Korxona)ning ustav fondidagi 49 foiz davlat ulushi ommaviy savdolar orqali sotiladigan korxonalarning aksiya paketlari (ulushlari) ro‘yxatiga kiritilganligi;

O‘zbekiston Respublikasining Vazirlar Mahkamasining 2014-yil 6-oktabrdagi 279-son qarori bilan tasdiqlangan “Davlat korxonalari va davlat muassasalarini xo‘jalik jamiyatlariga o‘zgartirish tartibi to‘g‘risida”gi Nizomining 33-bandiga muvofiq davlat unitar korxonasi xo‘jalik jamiyati etib o‘zgartirilayotganda uning mulki inventarizatsiyadan o‘tkazilishi va xo‘jalik jamiyati ustav fondining (ustav kapitalining) miqdori mulk baholashdan o‘tkazilmagan holda, soliq organlariga taqdim etilgan oxirgi buxgalteriya balansi ma’lumotlariga asosan belgilanishi ko‘rsatilganligi;

Davlat aktivlari agentligi Toshkent shahar hududiy boshqarmasining 2025-yil 6-martdagi 51-son buyrug‘iga asosan xatlovdan o‘tkazish komissiyasi tuzilib, Korxonaning barcha mol-mulkklari xatlovdan o‘tkazilganligi hamda mol-mulkklari balans (qoldiq) qiymati 910 796 734,96 (to‘qqiz yuz o‘n million yetti yuz to‘qson olti ming yetti yuz o‘ttiz to‘rt so‘m to‘qson olti tiyin) so‘mni tashkil etganligi;

Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Soliq qo'mitasi Toshkent shahar soliq boshqarmasining 2025-yil 7-apreldagi 22-120702-son xatiga muvofiq "O'zyo'lloyiha loyiha-qidiruv instituti" davlat unitar korxonasi tomonidan taqdim etilgan oxirgi buxgalteriya balansi ma'lumotlariga asosan uning ustav kapitali aktiv qiymati 200 000 000,0 (ikki yuz million) so'mni tashkil etganligi ma'lumot uchun qabul qilinsin.

2. "O'zyo'lloyiha loyiha-qidiruv instituti" davlat unitar korxonasi qayta tashkil etish yo'li bilan "O'zyo'lloyiha loyiha-qidiruv instituti" mas'uliyati cheklangan jamiyatiga o'zgartirilsin.

3. "O'zyo'lloyiha loyiha-qidiruv instituti" MChJning ustav kapitali 200 000 000,0 (ikki yuz million) so'm miqdorida tasdiqlansin va 100 foiz Davlat aktivlarini boshqarish agentligi Toshkent shahar hududiy boshqarmasi ulushi etib belgilansin.

4. "O'zyo'lloyiha loyiha-qidiruv instituti" MChJ – "O'zyo'lloyiha loyiha-qidiruv instituti" davlat unitar korxonasining shartnomalari, huquqlari va majburiyatlari bo'yicha huquqiy vorisi hisoblanishi ko'rsatib o'tilsin.

5. "O'zyo'lloyiha loyiha-qidiruv instituti" MChJning ustavi ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

6. "O'zyo'lloyiha loyiha-qidiruv instituti" MChJning direktori vazifasini vaqtincha bajaruvchi etib Mamatov Alisher Dolliyevich tayinlansin.

7. "O'zyo'lloyiha loyiha-qidiruv instituti" MChJning direktori v.v.b. (A.D.Mamatov) uch kun muddatda jamiyatni qayta tashkil etish bilan bog'liq barcha ishlarni amalga oshirish, shu jumladan jamiyatning ustavini belgilangan tartibda davlat ro'yxatidan o'tkazilishini ta'minlash vazifasi topshirilsin.

8. Davlat aktivlarini xususiylashtirish bo'limi (M.Azimov)ga Vazirlar Mahkamasining 2014-yil 6-oktabrdagi 279-son qarori bilan tasdiqlangan "Davlat korxonalari va davlat muassasalarini xo'jalik jamiyatlariga o'zgartirish tartibi to'g'risida"gi Nizom talablariga asosan mazkur buyruq imzolangan sanadan boshlab o'ttiz kun ichida "O'zyo'lloyiha loyiha-qidiruv instituti" DUKni qayta tashkil etish yo'li bilan "O'zyo'lloyiha loyiha-qidiruv instituti" MChJga o'zgartirilganligi to'g'risida ommaviy axborot vositalarida e'lon berish vazifasi yuklatilsin.

9. Boshqarma boshlig'ining 2025-yil 30-sentabrdagi 255-son buyrug'i o'z kuchini yo'qotgan deb hisoblansin.

10. Ijro nazorati va murojaatlar bilan ishlash bo'yicha bosh mutaxassis (A.Kucharov) "O'zyo'lloyiha loyiha-qidiruv instituti" MChJ belgilangan tartibda davlat ro'yxatidan o'tgandan so'ng, Jamiyat murojaatiga asosan o'n kunlik muddatda "O'zyo'lloyiha loyiha-qidiruv instituti" davlat unitar korxonasi qayta tashkil etish yo'li bilan "O'zyo'lloyiha loyiha-qidiruv instituti" MChJga o'zgartirilishi sababli elektron shaklda beriladigan mulk huquqini tasdiqlovchi davlat orderini ro'yxatga olinishini;

Mazkur buyruqning nusxalarini Davlat aktivlari agentligi, “O‘zyo‘lloyiha loyiha-qidiruv instituti” MChJga hamda hududiy boshqarmaning tegishli bo‘limlariga yetkazilishini ta’minlasin.

11. Mazkur buyruqning ijrosini nazorat qilish boshqarma boshlig‘i o‘rinbosari J.Axmedov zimmasiga yuklatilsin.

Boshqarma boshlig‘i



A. Razzoqov